

Date: 13<sup>th</sup> February-2025

HARAKAT TAYANCH A'ZOLARIDA NUQSONI BOR, IMKONIYATI  
CHEKLANGAN O'QUVCHILARGA "AYOLLAR KIYIMINI TIKISH  
TEXNOLOGIYASI" FANINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARNI  
QO'LLASH

**Razzakova Manzura Fazliddin qizi**

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus  
texnikum "Yengil sanoat" kafedrasida maxsus fan o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maxsus texnikumlarda tahsil olayotgan imkoniyati cheklangan o'quvchilarga mutaxassislik fanlarini o'qitishda interfaol usullardan foydalanib, ta'lim sifatini oshirish haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** interfaol, texnologiya, ta'lim, metod, islohot, ko'nikma, faoliyat, harakat, mashg'ulot, tikuv mashinasi, baxyaqator.

Hozirgi kunda yurtimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganlaridek, mamlakatimiz kelajagi hisoblangan yoshlarning Vatanimiz ravnaqi yo'lida har taraflama yetuk shaxs sifatida rivojlanishi, ularning raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishi uchun xizmat qilib kelmoqda. XXI asr fan texnika shiddat bilan rivojlanayotgan davrda har bir sohaga xorijiy tajribalar, yangi loyihalar kirib kelayotgani mamlakatimiz rivoji va ta'lim sohasida o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib kelmoqda. Zamon shiddat bilan rivojlanib borar ekan, bo'lg'usi pedagoglardan yana ham yuksakroq marralarni ko'zlash, fan, texnika va texnologiyalar borasidagi yangiliklardan xabardor bo'lish, dars mashg'ulotlarida interfaol usullarni qo'llash talab etilmoqda.

Interfaol usullar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni fikrlashga undaydi. Interfaol usullar o'quvchilarda doimiy faollikni ta'minlaydi. O'quvchilar dars davomida bo'sh qolmaydilar, ular mavzuga oid biror bir muammo bilan band bo'ladilar. Natijada esa zerikish holatini oldi olinadi.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim usullari quyidagilar sanaladi: "Aqliy hujum", "Blits-so'rov", "Klaster" (yoki "Tarmoqlar metodi"), "Bumerang", "Venn diagrammasi", "Zinama-zina", "Jadvalni to'ldir", "B/B/B jadvali", "So'zni top", "Harflarni to'g'ri qo'y", "E'tiborni jamlash", "Yelpig'ich", "Nima uchun?", "Yumaloqlangan qor", "Intervyu" va boshqalar.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirish jiddiy muammoga aylanib borayotganligi hech kimga sir emas. "Ayollar kiyimini tikish texnologiyasi" fani dars mashg'ulotlarida ham imkoniyati cheklangan o'quvchilarni darsga qiziqtirish va kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida interfaol usullardan atroflicha foydalaniladi. Quyida bir necha xillarini misol tariqasida keltiramiz.

"Blits - so'rov"- ushbu usul o'quvchilarni harakatlar ketma - ketligini to'g'ri tashkil qilishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmet asosida xilma-xil fikrlar, ma'lumotlar ichidan kerakligini tanlab olishni, shu bilan birga o'zgaralar fikrini hurmat




Date: 13<sup>th</sup> February-2025

qilishni hamda ularga o'z fikrini o'tkaza olishni o'rgatadi. O'quvchilarga mashg'ulotni o'tkazish tartibi haqida tushuncha beriladi. O'qituvchi mavzuga tegishli savollar yozilgan tarqatma materiallarni o'quvchilarga tarqatadi. O'quvchilar belgilangan vaqt ichida savollarga javob yozishadi. O'qituvchi javoblar varaqasini yig'ib oladi. Noto'g'ri javob berilgan yoki javobsiz qolgan savollar bo'yicha o'quvchilarga ma'lumot beradi. Ushbu "Blits-so'rov" jadvali "Ayollar kiyimini tikish texnologiyasi" fanidan o'tilgan mavzular yuzasidan ishlab chiqilgan.

"BLITS – SO'ROV" JADVALI

Savollar	Javoblar
Tikuv mashinalari nima uchun ishlatiladi?	Gazlamani tikib kiyim yaratish uchun
Murakkab qaviq turlarini yozing?	Puxtalama qaviq, halqa qaviq, tugma qadash
Yubkada qanday taqilmalar ishlatiladi?	Molniya tasmali, ilgakli, izmali;
Universal mashina qanday choklarni bajaradi?	Baxyaqator
Sxemada qanday yoqa ko'rsatilgan?	Bukib tikilgan bir qavat yoqa
Qaviq razmeri va qaviqqator zichligi nimalarga bog'liq?	Gazlamaning qalinligi va qaviqqa qo'yiladigan talabga



"Venn diagrammasi" - ushbu usul mavzuga tegishli biror narsani ayrim jihatlarini hamda umumiy tomonlarini solishtirish, taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. Misol uchun, "Gazlamani xossasiga qarab bo'lak qirqimlariga ishlov berish usullari" mavzusida tabiiy va kimyoviy tolali gazlamalarning bir-biriga o'xshaydigan va o'xshamaydigan xossalari taqqoslanadi. Buning uchun ikki yoki undan ortiq doira quriladi. Doiralarning ikki tomoniga gazlamalarning nomlari yoziladi. Kesishuvchi doiralarga mos ravishda o'xshaydigan yoki o'xshamaydigan xossalari, qanday kiyim tikilishi mumkinligi yoziladi.


"VENN DIAGRAMMASI"



Date: 13<sup>th</sup> February-2025

“Klaster” (yoki “Tarmoqlar metodi”) - - bu usul o‘quvchilarning biron bir mavzuni chuqur o‘zlashtirishiga yordam beradi, o‘quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘lagan holda tarmoqlashlariga o‘rgatadi. Bu usul biron mavzuni chuqur o‘rganishdan avval o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda o‘quvchilarning shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Quyidagi klaster “Tikuv buyumlarining tasnifi” mavzusiga tayyorlangan.

“KLAUSTER”




“Zinama-zina” - ushbu usul o‘quvchilarni o‘tilgan yoki o‘tilishi kerak bo‘lgan mavzu bo‘yicha yakka va kichik jamoa bo‘lib fikrlash hamda xotirlash, o‘zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to‘plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko‘rinishida ifodalay olishga o‘rgatadi. Bu usuldan “Turli yoqalarni tikish” mavzusida foydalanish mumkin.



Date: 13<sup>th</sup> February-2025

“ZINAMA-ZINA”



Interfaol usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatli, o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqti bilan to'g'ri xulosani aytib o'tib ketadi. Natijada o'quvchi xatosini o'zi tushunib oladi. Bu esa imkoniyati cheklangan o'quvchilarni tushkunlikka tushish, fikrini yetkazib bera olmaslik kabi salbiy holatlardan asraydi. Bunday tarzda tashkil etilgan darsda o'quvchi o'zini hurmat qilinayotganligini sezadi va bunday sharoitda hech qanday tayziqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta oladi. Shu bilan birgalikda u boshqalarni ham hurmat qilishni o'rganadi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlaydigan pedagog va tarbiyachilar oldidagi dolzarb muammo ham yoshlarni mustaqil fikrlashga, o'z mavqeini himoya qilishga, tanqidiy fikrlarni qabul qila olishga o'rgatish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, maxsus fanlarni o'qitishda interfaol usullardan foydalanish, harakat tayanch a'zolarida nuqsoni bor, imkoniyati cheklangan o'quvchilarni mavzularni tushunarli va oson qabul qilishiga, o'tilgan materialni yaxshi eslab qolishiga, mustaqil fikrlay olishiga va ta'lim mazmunini o'zlashtirishiga yordam beradi. Bu esa o'quvchilarga kelajakda olgan bilimlarini amaliyotda qo'llab, ish faoliyatlarini olib borish, hamda jamiyatda o'z o'rniga ega shaxs sifatida shakllanishiga sabab bo'ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan quraylik.–T.: “O'zbekiston”, 2017.
2. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T.2004
3. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi.: Nasaf. 2000.
4. N.Saydahmedov Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). - T.: Moliya, 2003.
5. Ta'limning faol usullari. Uslubiy tavsiyalar. TVPQTMOI. T.2004.
6. N.Kasimova. Tikuvchilik sohasida imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlash. «Новости образования: исследование XXI века». Февраль, 2024
7. Magzumov P.T. va boshqalar. O'quvchilarni mehnatga va kasb tanlashga tayyorlash. – T.: O'qituvchi, 1991